

KORXONALAR PUL OQIMLARI BOSHQARUVIDA PROGNOZ USULLARIDAN FOYDALANISH

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li

Toshkent xalqaro universiteti
Biznes va innovatsion ta'lim fakulteti
dekani, i.f.b.f.d., dotsent
E-mail: ifoziljonov@tsue.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada korxonalar pul oqimlarini boshqarishda prognoz usullaridan foydalanish va uning korxonada moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati xususida so'z borgan. Xususan, pul oqimlarini prognozlash korxonalarda likvidlik tanqisligini oldini olishga, debitor va kreditorlar bilan munosabatlarni muvofiqlashtirishga, muomala mablag'larini samarali boshqarishga yordam beradi. Shu bilan birga, prognozlash usullarining muntazam qo'llanilishi korxonada moliyaviy intizomni oshiradi hamda korxonada faoliyatida ichki nazorat kuchayadi, samaradorlik ortib boradi, va moliyaviy tizimda barqarorlik shakllanadi.

Kalit so'zlar: Pul oqimlari prognozlash, optimistik, real va pessimistik ssenariylar, moliyaviy barqarorlik va likvidlik, strategik boshqaruv, investitsiya strategiyalari.

Аннотация

В данной статье рассматривается использование методов прогнозирования в управлении денежными потоками предприятий и их значимость для обеспечения финансовой устойчивости компании. В частности, прогнозирование денежных потоков способствует предотвращению дефицита ликвидности на предприятии, координации взаимоотношений с дебиторами и кредиторами, а также эффективному управлению оборотными средствами. Кроме того, регулярное применение методов прогнозирования повышает финансовую дисциплину на предприятии, усиливает внутренний контроль в его деятельности, способствует росту эффективности и формированию устойчивости финансовой системы.

Ключевые слова: Прогнозирование денежных потоков, оптимистичные, реалистичные и пессимистичные сценарии, финансовая устойчивость и ликвидность, стратегическое управление, инвестиционные стратегии.

Abstract

This article discusses the use of forecasting methods in the management of corporate cash flows and their significance in ensuring the financial stability of an enterprise. In particular, cash flow forecasting helps prevent liquidity shortages, facilitates the coordination of relationships with debtors and creditors, and supports the effective management of working capital. Furthermore, the regular application of forecasting techniques enhances financial discipline within the enterprise, strengthens internal control mechanisms, improves operational efficiency, and contributes to the overall stability of the financial system.

Keywords: Cash flow forecasting, optimistic, realistic, and pessimistic scenarios, financial stability and liquidity, strategic management, and investment strategies are essential components of effective corporate financial planning and decision-making.

KIRISH

Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda pul oqimlarini oldindan aniq prognoz qilish muhim ahamiyatga ega. Pul oqimlarini prognozlash orqali korxonalar o'zining kundalik, haftalik yoki oylik to'lov majburiyatlarini bajarishga yetarli naqd mablag'larga ega ekanini oldindan bilib oladi. Bu likvidlik muvozanatini saqlashga, ya'ni aktivlarni tez pulga aylantirish imkoniyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Agar kelgusi davrda pul oqimida tanqislik kutilsa, prognoz natijalari asosida bu holatni oldini olish uchun tadbirlar ko'riladi: qisqa muddatli kreditlar jalb etish, to'lovlarni kechiktirish yoki xarajatlarni qisqartirish kabi choralar ko'riladi. Prognozlash orqali korxonalar o'zining barcha qarzi majburiyatlari – kreditorlar, banklar, davlat organlari va ta'minlovchilar oldidagi to'lovlarni o'z vaqtida bajarishi yoki bajara olmasligi yuzasidan oldindan ma'lumotga ega bo'ladi. Bu esa to'lov qobiliyatini rejali ravishda boshqarish imkonini beradi. Shu yo'l bilan korxonalar o'z ishonch reytingini saqlab qoladi, qarzi olish sharoitlarini yaxshilaydi va ta'minotchilar bilan barqaror munosabatni saqlaydi.

Bugungi kunda korxonalar pul oqimlarini prognoz qilishda zamonaviy usullardan keng foydalanmoqda. Biznes yuritishda pul oqimlari ko'rsatkichlarini hisoblash va ularni prognoz qilish eng asosiy elementlardan biri hisoblanadi. Pul oqimlari prognozini amalga oshirishda korxonada bir nechta ko'rsatkichlarni inobatga olish lozim. Xususan, korxonaning erkin pul oqimlari hamda chegirmaviy pul oqimlarini hisobga olgan holda prognozni amalga oshirish lozim.

Umuman olganda, tadqiqotchilar va tahlilchilar korxonadan kutilayotgan pul oqimlarini va kelajakdagi daromad keltiruvchi aktivlarining joriy qiymatini hisoblash orqali pul oqimlari prognozini amalga oshirmoqdalar. Jumladan, amaliyotda korxonalarining investitsion loyihalari pul oqimini hisoblash uchun diskontlangan pul oqimlari usulidan keng foydalaniladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalar biznes faoliyatining raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun har bir ko'rsatkich bo'yicha pul oqimlarini prognoz qilish aniq va real bo'lishi lozim. Shuning uchun korxonalar ko'pincha ko'p yillarni o'z ichiga oladigan biznes-rejalar uchun pul oqimlari prognozlarini amalga oshiradi. Xususan, korxonalarining pul oqimlarining prognozini aniq hisob-kitoblar asosida amalga oshirmasa, korxonalar katta moliyaviy yo'qotishlarga duch keladi, bu esa biznes imkoniyatlarini yo'qotishga olib keladi.

Xorijlik iqtisodchi olimlar amalga oshirilgan tadqiqotida aksiyadorlik jamiyatlarining pul oqimlarini prognoz qilishni aniq amalga oshirish, jamiyatning moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish kaliti hisoblandi. Aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlar va investorlar uchun pul oqimlarini prognoz qilish va jamiyatning pul oqimlarini muvaffaqiyatli boshqarish muhimdir (Chen Mark T, 2007).

Korxonalar naqd pul oqimini prognozlashning maqsadi oldindan pul oqimlari kirimi va chiqimlarini simulyatsiya qilish va investitsiya qilish orqali jamiyatning naqd pul hamda likvidlik holatini amalga oshirish hisoblanadi. Pul oqimlarini prognoz qilishning maqsadi aksiyadorlik jamiyatining faoliyatini moliyalashtirishga boʻlgan mablagʻlar mavjudligini aniqlash va jamiyatning naqd pul mablagʻlarining maksimal darajada ishlatilishiga hamda qoʻshimcha qarzlarni olish zaruriyati yoʻqligiga ishonch hosil qilishdir. Pul oqimlarini muvaffaqiyatli prognoz qilishning afzalligi aksiyadorlik jamiyatlari kapitalining narxini pasaytiradi va ortiqcha pul daromadini oshiradi (Rajendra R, 2013).

Jumladan, pul oqimlarini prognoz qilishda notoʻgʻri maʼlumotlardan foydalanish pul oqimlari prognoz qilinayotgan davrdagi pul oqimi toʻgʻri amalga oshirilmaydi. Shuningdek, pul oqimlari prognozi haqiqiy raqamlar bilan taqqoslash va raqamlarni tuzatish, aksiyadorlik jamiyati pul oqimi prognozini yaxshilashga olib keladi (Bragg SM, 2010).

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda, Oʻzbekistondagi faoliyat yuritayotgan “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyati tanlanib olinib, operatsion faoliyatdan olingan pul oqimlari tahlili amalga oshirilgan. Shu bilan birgalikda, korxonaning 2025-yil uchun turli prognozlash usullarini (trend, ssenariyli tahlil) qoʻllangan. Maqsad — korxonaning kelgusi yildagi pul oqimlarini baholash, moliyaviy barqarorlik va likvidlikni taʼminlashga yordam beradi.

Empirik maʼlumotlarni tahlil qilish jarayonida statistik usullar, jumladan, korrelyatsion va regression tahlil qoʻllanilib, korxonaning istiqboldagi muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pul oqimlari prognozlari asosida korxonalar oʻzining investitsiya salohiyatini, yaʼni yangi loyihalarga sarflash mumkin boʻlgan erkin pullar miqdorini aniqlaydi. Shunday qilib, prognozlash korxonalar rahbariyatiga strategik investitsiya qarorlarini oqilona qabul qilish imkonini beradi. Shuningdek, prognoz natijalari banklar yoki sarmoyadorlarga taqdim etiladigan biznes-rejalarga asos boʻlib xizmat qiladi. Bu esa kredit resurslariga ega boʻlish imkoniyatini oshiradi. Prognozlash usullari, ayniqsa, ssenariyli tahlil (optimistik, pessimistik va real ssenariylar) orqali korxonani ehtimoliy moliyaviy xatarlardan himoya qiladi. Masalan, tushum kutilganidan kam boʻlib qolsa yoki xarajatlar keskin ortib ketsa, oldindan tayyorlangan ssenariylar asosida tezkor choralar koʻrish mumkin. Bunday yondashuv, oʻz navbatida, korxonaning barqaror faoliyat yuritishi va bankrotlik xavfini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Qoʻyidagi jadvalda korxonalar pul oqimlarini prognozlash turlarini koʻrib oʻtamiz.

1-jadval
Korxonalar pul oqimlarini prognozlash turlari tahlili¹

№	Turlari	Tavsifi	Qo'llanilish muddati	Afzalliklari
1	Qisqa muddatli prognoz	Kunlik, haftalik yoki oylik pul tushumlari va to'lovlar	1–3 oy	Likvidlikni saqlash, kundalik nazorat
2	O'rta muddatli prognoz	Oylik asosda tuziladi, byudjet rejalariga bog'liq	3–12 oy	Naqd mablag' taqchilligini oldindan ko'rish
3	Uzoq muddatli prognoz	Kapital loyihalar va investitsiya rejalashtirish	1–3 yil	Investitsiya strategiyasi uchun muhim
4	Uzoq muddatli prognoz	Kapital loyihalar va investitsiya rejalashtirish	1–3 yil	Investitsiya strategiyasi uchun muhim
5	Ssenariyli prognoz	Turli iqtisodiy holatlarda ("optimistik, real, pessimistik")	Har qanday	Xavf-xatarni hisobga oladi

Korxonaning naqd pul tushumlari va to'lovlari muvozanatda bo'lmasa, hatto rentabel korxonalar ham to'lovga qobiliyatsiz holatga tushib qolishi mumkin. Prognozlash korxonalarida likvidlik tanqisligini oldini olishga, debitor va kreditorlar bilan munosabatlarni muvofiqlashtirishga, muomala mablag'larini samarali boshqarishga yordam beradi. Pul oqimlari prognozlari turli ssenariylarda ishlab chiqilganda (optimistik, real, pessimistik) korxonalar tavakkal holatlarni oldindan ko'radi, ehtimoliy pul tanqisligini bartaraf etish uchun rezerv rejalar ishlab chiqadi.

Pul oqimlari prognozlari korxonaning moliyaviy byudjetlarini tuzishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu orqali xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish osonlashadi, "kechikishlar" va "ortiqcha xarajatlar"ni oldini olish mumkin, ichki hisobot va byudjet ijrosi samarali nazorat qilinadi, korxonalar moliyaviy shoklarga nisbatan tayyor bo'ladi.

Banklar, investorlar, davlat organlari korxonadan kelgusi pul oqimlari to'g'risida aniq prognozlar talab qiladi. Shu sababli prognozlash hisobotlari ishonchlilikni oshiradi, reyting agentliklar baholashi uchun asos yaratadi, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablariga javob beradi.

Pul oqimlarini prognozlash nafaqat moliya boshqaruvi, balki strategik menejmentning ham ajralmas qismi hisoblanadi. U korxonaning ishchanligini ta'minlaydi, operatsiyalarni izchil rejalashtiradi va moliyaviy xatarlardan saqlaydi. Shu sababli, har bir zamonaviy korxonalar prognozlash usullarini muntazam ravishda qo'llashi lozim.


¹ Muallif ishlanmasi

Pul oqimi prognozlash — bu faqatgina texnik moliyaviy operatsiya emas, balki strategik boshqaruvning markaziy qismi hisoblanadi. Korxonada prognozlash usullarining muntazam qoʻllanilishi moliyaviy intizomni oshiradi, boshqaruv qarorlarini asosli qiladi va ichki hamda tashqi manfaatdor tomonlar ishonchini kuchaytiradi.

Shu boisdan, pul oqimi prognozlashni faqatgina moliyaviy funksiyalar bilan cheklash notoʻgʻri. U tashkilotning umumiy strategik boshqaruv tizimidagi muhim instrument hisoblanadi. Byudjetlashtirish, investitsion loyihalarni baholash, qarz majburiyatlarini muddatli toʻlash, ish haqi va xomashyo bilan bogʻliq xarajatlarni rejalashtirish kabi barcha faoliyat sohalari ushbu prognozlarga bogʻliqdir. Agar pul oqimi yetarli boʻlmasa, eng toʻgʻri strategiya ham bajarilmaydi. Agar pul oqimlari notoʻgʻri prognoz qilinsa, strategik qarorlar xato boʻladi.

Prognozlash usullarining muntazam qoʻllanilishi korxonada moliyaviy intizomni oshiradi. Masalan, har oylik pul oqimi prognozi tuzilganda boshqaruvchilar kirim-chiqimlar haqida toʻliq maʼlumotga ega boʻladi. Bu ularni hisobdorlikka undaydi, xarajatlarni baholashda ehtiyotkorlikka olib keladi va tushumlarni ragʻbatlantirish uchun yangi strategik yechimlarni qidirishga chorlaydi. Natijada, korxonada faoliyatida ichki nazorat kuchayadi, samaradorlik ortib boradi, va moliyaviy tizimda barqarorlik shakllanadi.

Bundan tashqari, prognozlash orqali olingan maʼlumotlar tashqi manfaatdor tomonlar – banklar, sarmoyadorlar, davlat tashkilotlari, auditorlar uchun ham juda muhimdir. Korxonada yoʻlga qoʻyilgan prognostik tizimlarning mavjudligi uning moliyaviy koʻrsatkichlariga ishonch uygʻotadi, investitsion jozibadorligini oshiradi, va kredit resurslariga boʻlgan yoʻlni ochadi. Shu jihatdan pul oqimi prognozlash – bu boshqaruv qarorlarini asosli qilishda hal qiluvchi omil boʻlib, tashqi ijobiy imidjni shakllantiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.



1-rasm. “Navoiyazot” AJning operatsion faoliyati pul oqimlari tahlil¹

¹ Korxonada maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi

Shu bilan birga, ssenariyli tahlillar – optimistik, real va pessimistik ssenariylar asosida tuzilgan prognozlar – korxonani ehtimoliy moliyaviy xavflardan saqlashda alohida o‘rin tutadi. Bu usullar iqtisodiy o‘zgarishlar, bozordagi tavakkalchiliklar yoki ichki muammolar yuz berganda ham, tezkor choralar ko‘rish imkonini yaratadi. Masalan, tushumlar kutilganidan kam bo‘lib qolsa, pessimistik ssenariyda ko‘rsatilgan rejalar darhol ishga tushiriladi.

Ushbu hujjatda Navoiyazot AJ korxonasining 2019–2024-yillar davomidagi operatsion pul oqimlari tahlil qilinadi va 2025-yil uchun turli prognozlash usullarini (trend, ssenariyli tahlil) qo‘llaymiz. Maqsad — korxonaning kelgusi yildagi pul oqimlarini baholash, moliyaviy barqarorlik va likvidlikni ta‘minlashga yordam beradi.

2019-yil ko‘rsatkichi 0.2 mlrd so‘m bo‘lib, bu juda past ko‘rsatkich hisoblanadi, 2020-yilda 1.3 mlrd so‘mni tashkil qilib boshqa yillarga nisbatan keskin o‘shish anomal darajada yuqori bo‘lgan. 2021–2024-yillarda barqarorlashuv va sekin o‘shish kuzatilib, 2020-yilda operatsion faoliyatdan kelgan pul oqimida ayrim katta tushum yoki bir martalik omillar asosida oshganligi kuzatilgan. Keyingi yillarda OCF me‘yorlashgan va real trend shakllangan. Trend chizig‘i 2025-yildan boshlab pasayish tendensiyasiga ega. 2028-yilda $OCF = 0$ chizig‘idan pastga tushadi va salbiy pul oqimi natijasini ko‘rsatadi, 2030-yilda prognoz $OCF = -0.15$ mlrd so‘mni tashkil etib, korxonada operatsion faoliyatdan zarar ko‘rayotgan holatda bo‘ladi. 2027–2030-yillar oralig‘ida salbiy pul oqimi mavjud bo‘lib, bu qarz yoki kassa yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin. Trendga asoslanganda — ijobiy investitsiya faoliyatisiz korxonada o‘zini moliyaviy ta‘minlay olmaydi. 2025-yildan boshlab operatsion xarajatlarni optimallashtirishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Joriy faoliyat samaradorligi va sotuv siyosatiga e‘tibor qaratish kerak va ssenariyli prognoz va kaskad byudjetlash usullarini joriy etish maqsadga muvofiq. Investitsiya strategiyasi ijobiy pul oqimi olib keluvchi loyihalarga qaratilishi lozim. Agar amaldagi trend saqlansa, Navoiyazot AJ 2028-yildan boshlab to‘g‘ridan-to‘g‘ri pul oqimi yo‘qotish holatiga tushib qolishi kuzatiladi. Bu esa, jiddiy xavf hisoblanib, korxonada bank kreditiga qaram bo‘ladi yoki xarajatlarini keskin qisqartirishi talab etiladi. Prognozlash asosida qabul qilinadigan strategik qarorlar bu tendensiyani o‘zgartirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, pul oqimini prognoz qilish bu — moliya boshqaruvining yuragi, strategik rejalashtirishning asosi va barqaror rivojlanishning kafolatidir. Ushbu prognozlarning to‘g‘ri va muntazam amalga oshirilishi korxonaning ichki salohiyatini yuzaga chiqaradi, samaradorligini oshiradi va raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Korxonaning pul oqimlari prognozini investorlar, kreditorlar, xodimlar va reyting agentlar kuzatib boradi. Xususan, investorlar korxonaning pul oqimlarini kuzatishdan maqsad korxonaning qancha dividend berishini aniqlash, kapital qiymatini oshirish bilan bog‘liq investitsiyalarni amalga oshirish qarorlarini qabul qilish va kapitalga qilingan investitsiyalarni qoplash uchun kerak bo‘ladigan mablag‘lar me‘yorini aniqlash hisoblanadi. Kreditorlar esa, o‘zlari biznes yuritayotgan korxonada bilan bog‘liq

to'lov qobiliyatiga oid qarorlarni qabul qilishga, xodimlar ish xavfsizligi va ular ishlayotgan firmalar bilan bog'liq doimiy risk masalalaridan manfaatdor hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Luehrman T. A. (1998, July). Investment Opportunities as Real Options. *Harvard Business Review*, 51-67.
2. Chen Mark T, P.E., C.C.E. 2007, "ABC of Cash Flow Projections", *AACE International Transactions*, pp. PM21-PM25.
3. Yun Li, Luiz Moutinho, Kwaku K. Opong, Yang Pang. 2014 "Cash flow forecast for South African firms" *Review of Development Finance*, Volume 5, Issue 1, June 2015, Pages 24-33.
4. s, *Handbook of Global Corporate Treasury*, John Wiley & Sons, Somerset, NJ, USA. Available from: ProQuest ebrary.
5. Bragg SM 2010, *Treasury Management: The Practitioner's Guide*, John Wiley & Sons, Hoboken, NJ, USA. Available from: ProQuest ebrary.
6. Hackel K.S., Livnat J. & Rai A. (1994). The Free Cash Flow/Small-Cap Anomaly. *Financial Analysts Journal*, 50, (5), 33-42.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Ingliz tili muharriri:

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Rus tili muharriri:

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Musahhah:

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, sentyabr, 9-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**